


## 2022- yil yanvar-fevral oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari

2022- yilning yanvar-fevral oylarida Toshkent shahrida jami **3 865,9** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **108,7 %** ni tashkil etdi.




### 2022- yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʼlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʼlinadi.



**Maʼlumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



- Bino va inshootlar qurilishi
- Fuqarolik obyektlarini qurilishi
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**

2022- yil 1- mart holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxona va tashkilotlar soni 9,3 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 8,9 mingtani tashkil etib, o'tgan 2021- yilning mos davriga nisbatan 739 taga ko'paygan.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan bino va inshootlar qurilishi ishlari hajmi 144,7 % ni tashkil qilib (jami qurilishdagi ulushi 61,3 %) ni tashkil qildi, fuqarolik obyektlarini qurish 140,2% ga (jami qurilishdagi ulushi 16,2%), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin 151,9% ga (jami qurilishdagi ulushi 22,5%) Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Bino va inshootlar qurilishi bo'yicha qurilish ishlaringin eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-fevral oylaridagi jami qurilish ko'rsatkichiga nisbatan 56,5 % ni tashkil etdi.




## Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, (+,-)
	01.03.2021- yil	01.03.2022- yil	
<b>Toshkent shahar</b>	<b>8191</b>	<b>8930</b>	739
tumanlar:			
Uchtepa	596	641	45
Bektemir	173	205	32
Yunusobod	1058	1109	51
Mirzo Ulug'bek	1045	1127	82
Mirobod	736	840	104
Shayxontoxur	647	701	54
Olmazor	695	751	56
Sergeli	448	484	36
Yakkasaroy	850	912	62
Yashnabod	728	825	97
Yangihayot	162	209	47
Chilonzor	1053	1126	73



## Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (% da), 01.03.2022- yil holatiga




**Ma'lumot uchun:** Toshkent shahrida qurilish korxonalari soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Mirzo Ulug'bek (12,6 %), Chilonzor (12,6 %) va Yunusobod (12,4 %) tumanlaridir.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **829,0** mlrd. soʻnni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 126,4 % ni tashkil qilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 21,4 % ni tashkil qildi.



## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



**Maʼlumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Uchtepa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **60,6** %), Shayxontoxur tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **47,0** %), Yangihayot tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **46,1** %), va Yunusobod tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **23,8** %)ga toʼgʼri keldi.



## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022-yil yanvar-fevral oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan ko'payish kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **67,4 %**i bajarilib, 2021-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **5,1%** punktga ko'paygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **105,1 %** ni tashkil etgan holda **2 605,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.


### Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2021- yil yanvar oyi
- 2022- yil yanvar oyi

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **11,2 %** ni tashkil etib, **431,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish kuzatilib, **103,1 %** ni tashkil etdi.




## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektoring ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **27,2** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʼsish surʼati 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **151,6 %** ni tashkil qilib, jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **0,6 %** ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3 838,7** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati **145,5 %** ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **99,4%** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʼlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2022- yil yanvar-fevral

61,3 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **61,3%** yoki **2 371,6 mld. so'mni** tashkil etgan.

21,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **544,4 mld. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **21,2 %** ni tashkil etdi.

67,5 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 733,9 mld. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **67,5%** ni tashkil etdi.

11,4 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **292,3 mld. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **11,4%** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
2022- yil yanvar-fevral oylarida**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)</b>	<b>O‘sish sur’ati, %da</b>	<b>Umumiylajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)</b>
<b>Toshkent shahar</b>	<b>3 865,9</b>	<b>108,7</b>	<b>2087,5</b>
tumanlar:			
Uchtepa	343,0	163,8	210,3
Bektemir	102,2	117,2	81,6
Yunusobod	719,3	114,1	416,4
Mirzo Ulug’bek	494,4	97,9	254,3
Mirobod	388,3	101,9	211,8
Shayxontoxur	295,1	154,8	163,7
Olmazor	244,6	72,6	102,0
Sergeli	159,8	105,9	88,6
Yakkasaroy	328,5	105,3	243,1
Yashnabod	389,9	102,2	124,3
Yangihayot	120,2	180,4	33,1
Chilonzor	280,6	92,1	158,3

\*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo’shgan holda



## Toshkent shahrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari,%da

2021- yil yanvar-fevral

20,7




Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

19,8



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

59,5



Bino va inshootlarni  
qurilishi

2022- yil yanvar-fevral

22,5



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

16,2



Fuqarolik obyektlarini  
qurilishi

61,3




Bino va inshootlarni  
qurilishi

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



## Bino va inshootlar qurilishi



2022- yil yanvar-fevral  
oylarida

Toshkent shahrida qurilish ishlari




## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi %da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **6,1 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **48,8 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **10,1 % (35,4 %** punktga ko'paydi)ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **3,9 %** ni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **268,0%** punktga ko'paydi. **18,5 %** ulush kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan **34,9 %** punktga ko'paydi.



## Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-fevral

### Eng yuqori hajm (mlrd. so'm)

Yunusobod t.  
719,3


1

2

Mirzo Ulug'bek t.  
494,4

3

Yashnabod t.  
389,9



### Eng kichik hajm (mlrd. so'm)

Yangihayot t.  
120,2

1

2

Bektemir t.  
102,2

Sergeli  
159,8

3



## TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



**Toshkent shahar  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

*Aloqa telefoni: (71) 203-88-18(19)*

**2022- yil yanvar-fevral  
oylarida**

**Toshkent shahrida qurilish ishlari**